

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Turg‘unov Bahtiyor Nuriddinovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali "Iqtisodiyot" kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishning dolzarbligi, mavjud muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, jumladan, sun‘iy intellekt, blokcheyn va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish orqali nazorat samaradorligini oshirish, byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Xalqaro tajriba va O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar misolida moliyaviy nazoratning yangi modelini shakllantirish bo‘yicha takliflar berilgan. Shuningdek, nazorat organlari o‘rtasida axborot integratsiyasining yetarli darajada emasligi, real vaqt rejimida monitoring tizimlarining cheklanganligi kabi dolzarb muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar. raqamli iqtisodiyot, moliyaviy nazorat, sun‘iy intellekt, blokcheyn, Big Data, audit, raqamlashtirish, byudjet mablag‘lari, davlat moliyasi, nazorat mexanizmi.

Аннотация. В данной статье проанализирована актуальность, существующие проблемы и перспективы совершенствования системы финансового контроля в условиях цифровой экономики. Рассматриваются вопросы повышения эффективности контроля и обеспечения целевого расходования бюджетных средств за счёт автоматизации финансовых процессов на основе цифровых технологий, включая искусственный интеллект, блокчейн и большие данные (Big Data). На основе международного опыта и проводимых реформ в Узбекистане предложены рекомендации по формированию новой модели финансового контроля. Также выявлены актуальные проблемы, такие как недостаточная интеграция информационных систем контрольных органов и ограниченность мониторинга в режиме реального времени, и предложены пути их устранения.

Ключевые слова: цифровая экономика, финансовый контроль, искусственный интеллект, блокчейн, Big Data, аудит, цифровизация, бюджетные средства, государственные финансы, контрольный механизм.

Abstract. This article analyzes the relevance, existing challenges, and prospects for improving the financial control system in the context of the digital economy. It examines issues related to enhancing control efficiency and ensuring the targeted use of budget funds

through the automation of financial processes based on digital technologies, including artificial intelligence, blockchain, and big data. Drawing on international experience and ongoing reforms in Uzbekistan, the article presents proposals for developing a new model of financial control. Furthermore, it identifies key problems such as insufficient integration of information systems among control bodies and the limited capacity of real-time monitoring systems, and offers solutions to address these issues.

Keywords: digital economy, financial control, artificial intelligence, blockchain, big data, audit, digitalization, budget funds, public finance, control mechanism.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda global miqyosda iqtisodiy jarayonlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, moliyaviy nazorat tizimida ham raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish, xatoliklarni kamaytirish va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli Prezident farmoni [1] orqali davlat boshqaruvida raqamlashtirishni jadallashtirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaviy omillarni kamaytirish belgilab berilgan. Shuningdek, 2022-yil 28-fevraldagi PF–87-sonli Prezident farmoni bilan «Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash chora-tadbirlari» tasdiqlangan bo'lib, ushbu hujjatda moliyaviy nazorat tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy audit mexanizmlarini qo'llash va nazoratning ochiqligini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan [2]. Bundan tashqari, 2023-yil 1-martdagi PQ–95-sonli Prezident qarori bilan davlat moliyasini boshqarish tizimida «Hisob-kitoblar monitoringi axborot tizimi»ning joriy qilinishi moliyaviy intizomni mustahkamlashda raqamli nazoratning ahamiyatini yanada oshirdi [3]. Shu bilan birga, O'zbekistonning Jahon banki va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda olib borayotgan "GovTech" tashabbusi ham davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar integratsiyasi va real vaqt rejimida monitoringni yo'lga qo'yishda muhim qadam bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot konsepsiyasining joriy etilishi moliyaviy boshqaruv tizimining yangi bosqichga o'tishini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy nazoratni raqamlashtirish, uni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Moliyaviy nazoratga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida nazorat tizimining ishonchliligi va shaffofligini

ta'minlashda texnologik innovatsiyalar muhim o'rin tutadi. Xalqaro miqyosda Transparency International, World Bank va OECD tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda raqamli nazorat tizimlari korrupsiyani kamaytirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi [4].

Xalqaro darajada bu borada bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, mashhur nemis iqtisodchisi H. Peemöller o'z tadqiqotida moliyaviy nazoratni "moliyaviy axborotlarni tahlil qilish va baholash orqali moliyaviy faoliyat ustidan tizimli va uzluksiz nazorat qilish mexanizmi" deb ta'riflagan [5].

AQShlik olimlar R. Garrison va E. Noreen esa moliyaviy nazoratni "moliya harakatining aniqligi va ishonchligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ichki nazorat tizimining muhim bo'lagi" sifatida ko'rsatgan [6]. Ularning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarni joriy etish moliyaviy nazorat jarayonlarini soddalashtiribgina qolmay, balki real vaqt rejimida xatolik va suiste'mollarning oldini olishga yordam beradi.

O'zbekistonda moliyaviy nazorat organlari – Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Mahalliy olimlardan T. Abdullayev, M. Raximov moliyaviy nazoratning avtomatlashtirilgan shakllari, masofaviy audit, big data texnologiyasi asosida tahlil qilish uslublarining afzalliklari ko'rsatib o'tilgan [7].

Mahalliy olimlar ham bu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori M.A. Abdurahmonovning fikricha, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazorat tizimi real vaqt rejimida monitoring, tahlil va audit funksiyalarini bajaruvchi, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan axborot platformasiga aylanishi lozim [8].

O'zbekistonlik olimlardan R.Q. Qosimov esa o'z tadqiqotlarida moliyaviy nazoratni "iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va byudjet intizomini mustahkamlash vositasi" deb baholaydi. U raqamli iqtisodiyot davrida moliyaviy nazoratning ustuvor yo'nalishlari sifatida masofaviy monitoring, blokcheyn texnologiyalari asosida audit tizimini rivojlantirish, sun'iy intellektni moliyaviy tahlilga jalb qilish kabi jihatlarni ko'rsatadi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishga oid muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilindi. Maqolada sistemali yondashuv asosida nazariy va amaliy tahlil usullari qo'llanildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, hukumat qarorlari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi kabi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning moliyaviy nazorat tizimidagi ahamiyati o'rganildi. Tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli orqali xalqaro tajriba, jumladan, Jahon banki, OECD va Transparency International kabi tashkilotlarning raqamli nazorat bo'yicha ilg'or amaliyotlari o'rganilib, O'zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek,

kontent-tahlil usuli asosida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalaridagi yondashuvlar o‘rganildi.

Empirik tahlillar uchun O‘zbekiston moliyaviy nazorat organlari (Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi) tomonidan e‘lon qilingan ochiq statistik ma‘lumotlar asosida mavjud muammolar aniqlab chiqildi. Diagnostik yondashuv orqali axborot tizimlarining integratsiyalanmaganligi, monitoring samaradorligining pastligi kabi muammolar tahlil qilindi. Yechimlarni ishlab chiqishda modellashtirish va taxminiy bashorat usullaridan foydalanilib, raqamli texnologiyalar asosidagi moliyaviy nazorat mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari asosida nazorat tizimining raqamlashtirilgan, real vaqt rejimida ishlaydigan, sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalariga asoslangan yangi modeli taklif etildi.

Tahlil va natija. Hozirgi kunda moliyaviy nazorat tizimining ayrim segmentlarida axborot tizimlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi, ma‘lumotlar almashinuvining sekinligi va xatoliklar tufayli samaradorlik yetarli darajada ta‘minlanmagan. Shu munosabat bilan quyidagi muammolarni hal etish dolzarb hisoblanadi:

1. Moliyaviy nazorat jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish va yagona elektron platforma yaratish;
2. Nazorat organlari o‘rtasida axborot almashinuvini real vaqt rejimida ta‘minlash;
3. Sun‘iy intellekt va analitik texnologiyalar orqali firibgarlik holatlarini oldindan aniqlash;
4. Mutaxassislar malakasini oshirish orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
5. Qonunchilik bazasini raqamli nazorat talablariga moslashtirish.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va moliyaviy nazoratga ta‘siri o‘z navbatida Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini qamrab oladi. Raqamli iqtisodiyot – bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir. Moliyaviy nazorat jarayonida raqamli iqtisodiyotning samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari quyidagi tashkiliy va texnologik ishlarni o‘z ichiga oladi:

Pul va pul resurslari bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalar(moliyaviy tranzaksiyalar)ni raqamlashtirish – byudjet xarajatlarining nazoratini avtomatlashtirish, soliq to‘lovlarining raqamli tizim orqali qabul qilinishini tashkil etish.

Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish – davlat moliyasining shaffofligi va aniqligini ta‘minlash uchun blokcheynning joriy etilishi. Masalan, Estoniyada blokcheyn texnologiyasi(bu ma‘lumotlarni xavfsiz, o‘zgarmas va shaffof saqlashga mo‘ljallangan

tarmoqlashgan raqamli ma'lumotlar bazasi texnologiyasi)ning qo'llanilishi, davlat xizmatlarini transformatsiya qilishda muvaffaqiyatli misol bo'ldi.

Sun'iy intellekt va Big Data – moliyaviy xatarlar va noma'lum holatlarni aniqlash, foydalanuvchilarning moliyaviy amaliyotlarini monitoring qilish.

Raqamli iqtisodiyotga asoslangan moliyaviy nazorat tizimi moliya mablag'larining maqsadli sarflanishini, soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'lashni va ortiqcha sarsongarchilikning qisqartirishni ta'minlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi moliyaviy nazorat tizimida ayrim muammolar va imkoniyatlar mavjud masalan, O'zbekistondagi moliyaviy nazorat tizimi davlat organlari tomonidan, asosan, to'liq raqamlashmagan usullar bilan boshqarilmoqda ya'ni ma'lumotlarni yoki jarayonlarni an'anaviy usulda tekshirish va boshqarishni anglatadi. Bunday usullar avtomatlashtirilmagan va ko'p hollarda inson aralashuvi talab qilinadi.

Bu tizimda davlat byudjeti, soliq to'lovlari, davlat xaridlari va moliyaviy hisobotlar ko'pincha yagona markazlashgan manbaada to'planmasdan, har xil manbalardan tarqalgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi va bu ma'lumotlarning aniqligi va xolisligini tekshirish qiyinlashadi.

Shundan kelib chiqib moliyaviy nazoratdagi asosiy muammolar quyidagicha deb hisoblaymiz jumladan:

8. ma'lumotlar integratsiyasining to'liq emasligi;

9. an'anaviy usullar va vaqtni talab qiladigan jarayonlarning mavjudligi:

10. korrupsiya bilan bog'liq firibgarlik holatlari hisoblanadi. Moliyaviy ma'lumotlarning aniq va shaffof bo'lmasligi korrupsiyaga olib kelishi mumkin. Masalan, ayrim davlat xaridlari yoki soliq to'lovlarida so'nggi yillarda ko'p holatlarda davlat xaridlarida qandaydir (manipulyatsiyalarni amalga oshirish), ya'ni tenderlarda noto'g'ri ma'lumotlar yoki xilof qarorlar orqali manfaatlar olish, soliq to'lovchilar yoki firmalar moliyaviy hisobotlarini to'g'ri yoki to'la joyida ko'rsatmaslik, ma'lumotlarni buzish yoki o'zgartirish kuzatilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo'llari ya'ni moliyaviy nazoratni raqamlashtirish orqali uning samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullar va texnologiyalar joriy etilishi kerakligini ko'rsatmoqda.

Davlat organlari o'rtasida raqamli platforma va tizimlarni integratsiyalash, ma'lumotlarni bir joyga yig'ish va tahlil qilish uchun raqamli platformalar joriy etish muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari o'rtasidagi axborot almashish uchun "E-budget" platformasining ishlashi, byudjet xarajatlarini monitoring qilish, "Hisob.uz" tizimi orqali soliq to'lovchilarining hisobotlarini tekshirishga imkon yaratish.

Hozirgi raqamlashtirish sharoitida moliyaviy nazoratni raqamlashtirishning asosiy afzalliklari keltirib o'tamiz:

- Shaffoflikni oshiradi. Byudjet mablag‘larining harakati, tender jarayonlari, davlat xaridlari va moliyaviy operatsiyalar aniq vaqtda onlayn kuzatilishi mumkin bo‘ladi va bu korrupsiyaga qarshi samarali vosita hisoblanadi.

- Nazorat jarayonining tezkorligi. Raqamli platforma orqali ma’lumotlar avtomatik tahlil qilinadi va xatarli operatsiyalar oldindan aniqlanadi. Bu jismoniy tekshiruvlarga nisbatan ancha samarali va arzon hisoblanadi.

- Inson omilini kamaytiradi. Raqamlashtirilgan tizimlar orqali subyektivlik, shaxsiy manfaatlar yoki ana’naviy xato ehtimoli kamayadi.

- Xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Big Data va Predictive analytics asosida kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlarni, hodisalarni yoki natijalarni oldindan bashorat qilish uchun statistika orqali xatarli operatsiyalar oldindan bashorat qilinadi.

- Amalga oshirilgan operatsiyalar haqida to‘liq va aniq ma’lumot. Arxivlash, solishtirish va monitoring qilish imkoniyatlari kengayadi. Har qanday moliyaviy ma’lumotni real vaqtda olish va tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

- Tekshiruv jarayonida resurslarni tejaydi. Qo‘l mehnatiga bog‘liq jarayonlar qisqaradi, nazoratchilar soni kamayadi, xarajatlar pasayadi.

- Mahalliy va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlaydi. ISO, IFRS va boshqa standartlarga mos raqamli tizimlar joriy etiladi.

O‘zbekistonda raqamli moliyaviy nazorat [10] tizimlarini joriy etish bo‘yicha ayrim qadamlar tashlangan. Masalan, “Hisob.uz”, “E-budget”, “E-qarz” va boshqa elektron platformalar orqali byudjet xarajatlari, davlat qarzi va hisobotlar yuritila boshlangan. Biroq bu yechimlar hali to‘liq integratsiya qilinmagan va nazoratning barcha bosqichlarini qamrab olmagan.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti, moliyaviy nazoratga integratsiya qilinadigan zamonaviy texnologiyalar bilan birga rivojlanib, mamlakatning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshiradi. Bu moliyaviy resurlarni boshqarishni yanada samarali va shaffof qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish O‘zbekistonda byudjet intizomini mustahkamlash va korrupsion omillarni kamaytirish orqali iqtisodiyotda aniq ijobiy natijalar berishi kutilmoqda. Xususan, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni moliyaviy nazorat sohasiga joriy etgan davlatlarda budjet daromadlari o‘rtacha 1,5–2,3 foizga oshgan [12]. Bu holat O‘zbekiston misolida ham kuzatilmoqda: 2023-yil yakunlariga ko‘ra, elektron hisob-faktura tizimi orqali qayd etilgan soliq tushumlari 2020-yilga nisbatan 28% ga oshgan va bu 12,4 trln so‘mga teng qo‘shimcha tushumni tashkil qilgan [13].

Bundan tashqari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar ("Big Data") texnologiyalarining qo'llanilishi natijasida moliyaviy tahlil va auditda inson omilining kamayishi hisobiga aniqlik darajasi oshadi. Masalan, Estoniya tajribasida sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy monitoring tizimi joriy etilgach, davlat xarajatlarida qonunbuzarliklar aniqlanishi 30% ga qisqargan [14]. O'zbekistonda esa raqamli audit tizimining joriy etilishi natijasida 2022-yilda 2,1 trln so'mlik moliyaviy qonunbuzarliklar aniqlanib, 1,6 trln so'm davlat byudjetiga qaytarildi [15].

Shuningdek, ochiq byudjet portallari va elektron davlat xaridlari tizimlari shaffoflikni ta'minlab, jamiyatda ijtimoiy ishonchni oshirmoqda. Transparency International tashkilotining "Korrupsiyani qabul qilish indeksi" (CPI) reytingida O'zbekiston 2020-yilda 146-o'ringa bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 123-o'ringa ko'tarilgan, bu esa moliyaviy nazoratda shaffoflik darajasining oshganidan dalolat beradi [16].

Umuman olganda, moliyaviy nazoratni raqamlashtirish orqali iqtisodiyotda quyidagi iqtisodiy samaralarga erishish mumkin:

- budjet daromadlarining oshishi (har yili o'rtacha 1,5-2% gacha);
- davlat xarajatlarining maqsadli ishlatilishi va iqtisodiy samaradorlikning ortishi;
- investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi, bu esa tashqi investorlar ishonchini kuchaytiradi;
- korrupsiya va moliyaviy qonunbuzarliklar miqdorining kamayishi;

-moliya boshqaruvining umumiy samaradorligi va tezkorligi oshadi. Shuningdek, raqamli moliyaviy nazorat tizimlarini kengaytirish O'zbekistonda iqtisodiy boshqaruvning umumiy samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, davlat moliya tizimida raqamli texnologiyalar asosida "real vaqt" (real-time) monitoring imkoniyatlarining joriy etilishi orqali byudjet intizomi mustahkamlanadi, moliyaviy intizomsizliklar tezda aniqlanadi va bartaraf etiladi. Bu esa iqtisodiy resurslarning yo'qotilishini kamaytiradi va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosa.

Maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi fonida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishning dolzarb jihatlari chuqur tahlil etilgan. Raqamlashtirish jarayoni nafaqat moliyaviy nazoratning avtomatlashtirilishini, balki byudjet xarajatlarining ochiqqligini ta'minlash, inson omilini kamaytirish va korrupsiya xavfini minimallashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu ma'noda blokcheyn, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash (Big Data) texnologiyalaridan samarali foydalanish lozimligi asoslab berilgan. Maqolada shuningdek, O'zbekistonda mavjud bo'lgan asosiy muammolar – ma'lumotlar integratsiyasining past darajada tashkil etilganligi, an'anaviy qo'lda tekshiruvlarning ustuvorligi va shaffoflikning yetishmasligi aniqlanib, ularning echimi

sifatida davlat organlari o‘rtasida yagona raqamli platformalarni joriy etish, real vaqt rejimida nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish, sun’iy intellekt asosida xatarli operatsiyalarni oldindan aniqlash tizimlarini yaratish taklif etiladi. Umuman olganda, maqolada raqamli nazorat tizimining joriy etilishi orqali davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini oshirish, ishonchlilikni ta’minlash va iqtisodiy boshqaruvda innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish zarurligi ilmiy asosda yoritilgan.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazoratni takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi lozim:

1. **Mamlakatda yagona raqamli nazorat platformasini yaratish.** Bu platforma barcha davlat tashkilotlari uchun umumiy bo‘lib, moliyaviy hisobotlar, audit natijalari va byudjet harajatlari bo‘yicha yagona bazani shakllantiradi. Bu orqali nazoratning tezligi va aniqligi oshadi.

2. **Moliyaviy boshqaruv organlari faoliyatiga sun’iy intellekt (AI) va Machine Learning (ML) asosidagi tahlil mexanizmlarini joriy etish.** Bunday texnologiyalar yirik ma’lumotlar bazasi (big data) asosida real vaqt rejimida anomal harajatlarni aniqlash imkonini beradi [11].

3. **Moliyaviy nazorat sohasida mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.** Moliyaviy nazorat sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha doimiy malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish zarur.

4. **Mamlakatda moliyaviy monitoring va audit tizimini avtomatlashtirish.** Bu orqali inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi va nazorat jarayoni ob’ektiv va shaffof bo‘ladi.

5. **Mamlakatda moliyaviy nazorat bo‘yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish:** Raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi moliyaviy mexanizmlarni tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish lozim.

6. **Moliyaviy nazorat sohasida blockchain texnologiyasidan foydalanish:** Bu texnologiya orqali byudjet mablag‘larining harakatini shaffof ravishda kuzatish, tranzaktsiyalarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan shaklda saqlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” tog‘risida farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF–87-sonli «Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash chora-tadbirlari» tog‘risida farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi PQ-95-sonli «Hisob-kitoblar monitoringi axborot tizimi» to‘g‘risida qarori.
4. Transparency International (2022). *Corruption Perceptions Index*. <https://www.transparency.org>
5. Peemöller H. W. *Wirtschaftsprüfung: Grundlagen und aktuelle Entwicklungen*. Schäffer-Poeschel Verlag, 2019.
6. Garrison R. H., Noreen E. W. *Managerial Accounting*. 16th Edition, McGraw-Hill Education, 2021.
7. Abdullayev. T. *Moliyaviy nazoratning zamonaviy usullari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2021.
8. Abdurahmonov M.A. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo‘llari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali, 2022-yil, №5. – B. 45–51.
9. Qosimov R.Q. Davlat moliyasini boshqarishda zamonaviy nazorat mexanizmlarining ahamiyati // “Moliyaviy tahlil” ilmiy jurnali, 2023-yil, №2. – B. 38–44.
10. Malikov T.S., Olimjonov O.O.; / – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. Moliya: Darslik. – 800 b.
11. OECD (2021). *Digital Transformation in Public Sector Audit*. <https://www.oecd.org>
12. World Bank (2021). *Digital Technologies for Transparency and Anti-Corruption*. Washington, D.C.
13. Davlat soliq qo‘mitasi hisobotlari, 2023-yil. www.soliq.uz
14. OECD (2020). *Digital Government Review of Estonia: Reinventing the Public Sector with AI and Data*.
15. Hisob palatasi axborot xizmati, 2023-yil hisobot. www.sai.uz
16. Transparency International (2023). *Corruption Perceptions Index 2023*. www.transparency.org